

**GLOBAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIY ONGI VA XULQIGA TA’SIR KO‘RSATISHNING PSIXOLOGIK SHAKLLARI**

*Murtazayeva Sayyora Sanoqulovna*

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani 34-umumiy  
o‘rta ta’limi maktabi amaliyotchi psixologi*

**Annotasiya.** XXI asrda kuzatilayotgan global o‘zgarishlar inson ongi va xulqida muayyan o‘zgarishlarni keltirib chiqarganligi, ular avvalo shaxsning ma’naviy dunyosida aks etayotganligi ayni haqiqatdir. Maqolada jamiyatning dolzarb muammosi bo‘lmish yoshlar ma’naviy ongi va ijtimoiy xulqiga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishning ayrim shakl va metodlari taxlil qilingan, uzluksiz ma’naviy tarbiyaning metodologik tamoyillari belgilangan.

**Kalit so‘zlar:** uzluksiz ma’naviy tarbiya, ahloqiy ta’sir shakli va metodlari, ustuvor ma’naviy fazilatlar.

Davlatimiz rahbari muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatasi deputatlari hamda jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvidagi Murojaatnomasi tom ma’noda olamshumul voqea bo‘ldi. Ushbu Murojaatnoma tarixiy ahamiyat kasb etib, unda asosiy urg‘u kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning buguni va ertasiga aloqador barcha masalalar yangi echim va yo‘nalishlarda xalqchil tilda bayon etildi; har bir tinglovchini va ma’ruzani o‘quvchini shaxsan mushohada qilish hamda o‘z faoliyatini tahlil etishga undadi. Ushbu Murojaat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda turgan mo‘ljallarimizni ado etish uchun metodologik asos rolini o‘ynaydi. Mamlakatimizdagi barcha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan olimlar va mutaxassislarni yoshlarimiz tarbiyasiga yana bir karra yangicha texnologiyalar va raqamli texnologiyalar asosida o‘z tajribalarini qayta ko‘rib chiqish va bunda birinchi navbatda ta’lim olayotgan yoshlarda turli yot g‘oyalarga nisbatan immunitetni hosil qilish, ularda sog‘lom fikrlarga nisbatan sobitlik psixologiyasini shakllantirishdek murakkab ishni amalda yangicha g‘oyalar asosida ko‘rib chiqishga majbur qildi, desak xato bo‘lmaydi.

O‘zbekiston psixologiyasi oldida turgan dolzarb va muhim vazifalardan biri aynan yoshlardagi mafkuraviy g‘oyalarni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladigan amaliy ishlarni yanada jonlantirish, eng zaimonaviy metod va uslublarni takomillashtirishdan iboratdir. . Zero, bugun ziddiyatli, inson fikri va dunyoqarashi uchun kurash kuchaygan davrda bu masala nafaqat davlatlararo, balki ko‘proq dinlararo, e’tiqodlararo

murosasizliklarning namoyon bo'lishiga sabab bo'luvchi motiv ekanligini anglash qiyin emas. Bunday sharoitlarda yoshlarni to'g'ri yashashga o'rgatish, malakali kadrlar qilib tarbiyalash, vatanparvar va insonparvar bo'lishga o'rgatish masalasi dolzarblik kasb etmoqda. O'rgatish masalasining qiyinligi shundaki, bu ishni har bir ijtimoiy toifa yoki shaxsning individual psixologik hususiyatlarini inobatga olmay, shaxsni o'rab turgan ijtimoiy muhitni, undagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini o'rganmay turib amalga oshirib bo'lmaydi, bu muammoni xal etishda ijtimoiy psixologiyaning o'rni va salohiyati kattadir.

Shaxs va jamiyat o'zaro munosablari, shaxsning turli guruhlardagi maqomidan kelib chiqib o'rganadigan fan sifatida ijtimoiy psixologiya eng avvalo amaliy fan sifatida o'z vazifalari borasida aynan insonning ijtimoiy xulqini jamiyat a'zosi sifatida to'g'ri yo'naltirish muammolarini o'rganadi va tavsiyalar ishlab chiqadi. Bu borada o'quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish muhim vaziflardan. Oxirgi yillarda aynan ushbu masalaga e'tibor yana kuchaydi. Yosh olimlar bu masala borasida o'z fikrlarini bayon etib, dissertasion tadqiqotlar ham olib bormoqdalar. Ushbu maqolada aynan oliy o'quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan murabbiylar, oliygoh psixologlari hamda pedagog-kadrlarga yoshlar mafkuraviy dunyoqarashini o'zgartirishga aloqador ayrim amaliy-psixologik yo'nalishlarni belgilashga qaror qildik. Avvalo shuni ta'kidlashni xohlar edikki, yaxlit guruh deb oladigan bo'lsak, ularning barchasi bilan, bir vaqtda, bir xil effekt bilan ishlashning o'zi mushkul. Ikkinchidan, bir guruh o'quvchi uchun maqbul va samarali deb hisoblangan uslubni boshqasida ham aynan joriy etishga urinish bunday sharoitlarda teskari samara berishi turgan gap, ya'ni, "bumerang samarasi"ni berishi mumkin. O'quvchilarimizning aksariyati biz xavotirlanayotgan muammo bo'yicha olib qaralganda umuman tarbiyaviy ta'sirga, umuman ataylab ular xulqidagi u yoki bu sifatni o'zgartirishga muxtoj emas, bu ishni ular ustida olib borish ko'zlangan maqsadga olib kelmaydi. Ijtimoiy psixologlar ko'proq gruppaviy qadriyatlarni kim, qachon va qaerda, qanday idrok qilishiga qiziqqanlar. Agar bizni qiziqtirayotgan masala, ya'ni, o'quvchi-yoshlarning bizga yot bo'lgan qadriyatlarni qabul qilishi, diniy aqidaparastlikka moyilligi nuqtai nazaridan muammoga yondashadigan bo'lsak, ma'lum bo'ladiki, ekstremistik kayfiyatli yoshlarning bunday fikrlashi bilan e'tiqodi butun tengdoshidan farqi unchalik katta emas ekan. Ya'ni, agar sog'lom fikrli bola ko'pchilik e'tirof etgan qadriyatni jondili bilan qabul qilsa, moyilligi bor bola sekin-asta bosiqlik bilan qabul qilarkan, lekin amalda u qaysi xulq shakliga ergashishi atrofda qilargama ma'lum vaqtgacha sir bo'lib qolaveradi. Bir qarashda hamma qatori bo'lgan o'quvchini ekstremistik kayfiyatini, undagi g'arazli, tajovuzkor niyatlar, noto'g'ri dunyoqarashni payqash qiyinroq ekan. Demak, bu xolat murabbiydan, pedagogdan, psixologdan, rahbardan o'ta ziyraklik va e'tiborni talab qiladi. Ho'sh, bugun bizning turli toifali, kayfiyatli, iqtidorli va o'rta o'zlashtiruvchi, moddiy jihatdan qashshoq yoki biroz

muxtoj, ya'ni ta'minlanganlik jihatdan turlicha bo'lgan o'quvchilar va magistr'larga e'tiborimiz qanday? Biz bugun o'zimizga shunday savol berishimiz kerak: oliygohning domlasi, murabbiylari va ustozlar kimlar bilan ko'proq ishlayapti va ishlashi kerak? O'tkazilayotgan ma'naviy va ma'rifiy uchrashuvlarda, katta tadbirlarda, davra suhbatlarida biz ko'proq kimlarni ko'ryapmiz? Ayrim olingan "muammoli", tarbiyatalab yoshlar bilan kim ishlayapti va qanday ishlayapti, bizda xavotirlik uyg'otayotgan o'quvchilar bunday sog'lom munozara va tadbirlarda ishtirok etyaptimi o'zi? Agar dekandan surunkali darsga kelmaydigan, o'quv predmetlarini arang o'zlashtiradigan o'quvchi bilan nima ish qilganini so'ralsa, "ishladik", "shug'ullanyapmiz" deydi, lekin uning ish metodlari bilan, qanday vositalar asosida darsni o'zlashtirishi bilan tanishmizmi? Nega olib borayotgan ishlarimiz hamisha ham samara bermayapti? Demak, ayrim mafkuraviy tayziqlar ta'siriga berilib qolgan yigit yoki qizning ongini "tozalash"da qanday yo'l tutayotganligimiz ma'lum ma'noda sirday. Vaholangki, aynan shundaylar bilan ishlash bevosita tarbiyalash bo'lsa, qolganlarni ana shunday yomon ta'sirlardan muhofaza qilish – yoshlar ongida immunitetni shakllantirish deb atalsa kerak.

Bizning kuzatishlarimiz murabbiylar ishlash uslubida hattoki "a'lochi", iqtidorli yoshlarga yondashuvda ham xatoliklar borligini ko'rsatmoqda. Aksariyat xollarda biz ularga "olimpiadada yutsang bo'ldi", "stependiant bo'lmasang bo'lmaydi" qabilada ustanovka berib, o'z ustida ishlashga majbur qilamiz. Kerakli sovrin yoki mukofotni olib kelgach, kursdoshlari davrasida uni bir rag'batlantirib, bir necha marotaba majlislarda maqtab, rasmini hurmat taxtasiga qo'yish bilan cheklanamiz. Shu o'quvchi keyinchalik ham o'ta tirishqoqligi bilan o'z ustida ishlayaptimi, yo'qmi, bu bilan keyin qiziqmaymiz. Sovrin olishda "pik" nuqtaga chiqqan iqtidor universitet diplomini olishga kelganda ancha pastlab ketganini sezmaymiz ham. Shu sababli ham aqidaparastlar domiga ilinganlar orasida eng iqtidorli deb yurgan o'quvchilarimiz ham chiqib qolmoqda.

Demak, birinchi masala – adashganlar uchun psixoterapiya nimadan iborat bo'lishi kerak? Xulq-atvordagi xatoliklar eng avvalo fikrlash tarzidagi xatoliklarning oqibati bo'lgani uchun bizningcha, avvalo ularning negativ fikrlash tarzi sxemasini o'zgartirish lozim. Bu bevosita o'quvchining ongiga ta'sir ko'rsatishni taqazo etadi.

Ikkinchidan, fikrlash tarziga ta'sir ko'rsatish uchun o'zimizdagi tushuntirish uslubimizni, umuman ishlash uslubimizni keskin o'zgartirishimiz kerak bo'ladi. Ya'ni, ilgari, yuqori tonlarda, direktiv ohangda, "katta" rolida gaplashib yurgan bo'lsak, endi kerak bo'lsa, "tengma-teng", demokratik ohangda, vazminlik bilan xatti-harakatlarni birgalikda tahlil etishga o'tish lozim. Yoki kimlar bilandir ilgari yaxshi gapirib yurgan bo'lsak, kerak bo'lsa, endi avtoritar yo'l tutishimiz kerak bo'ladi. Masalan, hatti-harakati shubha uyg'otgan o'quvchini rektor xonasiga taklif etib, og'ir-bosiqlik bilan "gaplashib olish" ham ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Aks xolda, ko'pincha, dekan yoki

uning o‘rinbosari eski usullarda “tarbiyalab” o‘spirinni battar ashaddiyashtirib, agressiv, tajovuzkor qilib yuborishi mumkin.

Uchinchidan, o‘quvchining o‘z-o‘zini idrok qilishini, o‘zini anglashini o‘zgartirish, ya’ni, unga murojaat shunday bo‘lsinki, o‘quvchi qilgan ishlari orqali o‘ziga o‘zi baho bersin. Bunda ko‘pincha, o‘quvchi nima bilan mashg‘ul bo‘layotganligi va uning oqibatlarini o‘zi anglashiga yordam berish kerak. Nihoyat, shunday vaziyat yaratish lozimki, o‘quvchi ijobiy tajriba orttirsin, ya’ni, o‘ziga, oilasiga yoki kursdoshlariga, fakultetiga manfaatli ish qilib, olqish olsun. Buning usuli -ta'sirga beriluvchan o‘quvchining kursdoshlariga birgalikda topshiriq berish kerak – xafta mobaynida har kunlik yaxshi va yomon ishlarini, yutuq hamda kamchiliklarini o‘zi erinmay yozib borishga undash ham bizningcha, samarali. Agar shu ishni o‘sha adashgan bola ham bajarsa, o‘zi bilmagan xolda o‘zi to‘g‘risidagi bahosi o‘zgaradi (yo o‘zini rosa yomon ko‘rib ketadi, yoki ijobiy ishlarning ko‘proq bo‘lishiga harakat qilib qoladi, yoki bu ishni qilolmasligini aytib, nochorligini o‘zi bo‘yniga oladi).

avvalo, pedagog hamda murabbiylar, muhimi - o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratish, aks xolda o‘quvchi ongi tayyor shablonlar, stereotiplarga shu qadar o‘rganadiki, ular oxir-oqibat har qanday bid'at yoki yot g‘oyalarga ergashib ketaveradigan bo‘lib qoladi. Ya’ni, darsni tashkil etishning noan'anaviy, interaktiv usullariga keng yo‘l ochish, darslarda o‘quvchilarning interaktiv muloqotini tashkil etish, ular miyasining yaxshiroq ishlashi, qiziqishlarining o‘sishi va mustaqil fikrlashiga yordam. Yoshlarni ahloqiylikka o‘rgatish, ahloqan va ma'nan yuksak bo‘lish, umuman tazyiqni, kuch ishlatishni rad etadi. Ma'muriy tazyiq ham yoshlarni yot ta'sirlardan asrab qolomaydi.

Buning yagona yo‘li – insoniy munosabatlarning asoslanganligi. Qolaversa, fuqarolik jamiyati qurish eng avvalo sog‘lom demokratik munosabatlarni taqazo etishini bilamiz. Xulosa. Ho‘sh, bugun oliy o‘kuv yurtlarida yoshlarni yot g‘oyalardan asrashning qanday real, amaliy, pedagogik-psixologik mexanizmlari mavjud?

1. Murabbiylar instituti. Aynan murabbiy o‘ziga yuklatilgan vazifalar doirasida o‘quvchilar guruhida darsdan tashqari muloqotda bo‘lish, uning oilasi, mashg‘ulotlari, muammolari bilan qiziqish imkoniyatiga ega.

2. Ma'naviyat kunlari. Ularni katta zallarda, tartib bilan kelgan o‘quvchilar bilangina emas, balki imkon qadar o‘sha darslarni qoldiradigan, “adashishga moyillar” ishtirokida tashkil etish maqsadga muvofiqroq. Bunda albatta, faol o‘quvchilardan foydalanish kerak. Aynan o‘quvchi-yoshlar qiziqadigan “Kitoblar yarmarkalari” o‘tkazib, kitobxonlik konkursleri o‘tkazish ham maroqli, ham ta'sirchandır.

3. Jamoat topshiriqlari. Menimcha, hozir ayrim o‘quvchilargina, birinchi navbatda, a'lochilar “Yoshlar ittifoqi” bo‘limlari orqali ayrim jamoat ishlariga jalb etilgan. Menimcha, Oksford universiteti kabi etakchi xorijiy oliy o‘quv yurtlari tajribasidan o‘rganib, universitetlarda amalda turli yo‘nalishli markazlar, Klublar,

havaskorlik to‘garaklari, fan laboratoriyalari kabilarni ko‘paytirib, ularga bevosita o‘quvchilarning ishtirokini ta‘minlash, dastlabki paytlarda jamoatchilik asosida ko‘maklashayotgan o‘quvchilarga moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish imkoniyatlarini qidirish kerak. Eng yaxshisi, turli grantlar, ilmiy-amaliy loyihalarga, “IT-texnologiyalar markazlari”ga jalb etish lozim.

4. O‘quvchini mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlash. Chunki o‘quvchilik yillari romantizm, sevgi va do‘stlik yillari ekanligini unutmaslik kerak. Shu yo‘l bilan o‘quvchi oilasi bilan aloqa bog‘lash, ota-onalar bilan hamkorlik qilish, nikoh yoshi to‘g‘risida aniq tasavvurlarga ega bo‘lish, oilaviy qadriyatlarga ham dunyoviy, ham diniy tomondan o‘rgatish bugungi kunda malakali mutaxassis bo‘lib etishishning muhim omilidir.

Yuqorida ta‘kidlangan Konsepsiya vazifalariga binoan, biz bugungi zamon yoshlaridagi ma‘naviy fazilatlarining “o‘q tomirlari”, asoslarini, ustuvorlarini ajratish lozim deb hisoblaymiz. Zero, shaxsga xos bo‘lgan ijobiy hamda salbiy xususiyatlarning bisyorligiga qaramay, ularni birlashtiruvchi o‘ta muhim fazilatlar borki, ular aslida tabiatan umumlashtiruvchi qadriyatlar hisoblanadi. Ularning ham biri maxsus tadqiqotlar doirasida o‘rganilishi va ijtimoiy psixologik amaliyotda, tarbiya jarayonida ularga asosiy e‘tibor qaratilishi lozim, deb o‘ylaymiz. Bizningcha, ular quyidagilar:- bolani ilk yoshlikdan o‘zini anglashga o‘rgatish, shundagina u yaxshini yomondan, halolni haromdan, gunohni savobdan, foydani ziyondan ajratishga o‘rganadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami . 2017. (766)-son
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. - T: “O‘zbekiston” 2019.- 488 b.
3. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998 ; 155 : 4-11.
4. Carney R. M., Saunders R. D., Freedland K.E., et al. Association of depression with reduced heart rate variability in coronary artery disease? Am J Cardiol. 1995 ; 67: 562-564.
5. Bass C., Wade C., Hand D., et al. Patients with angina with normal and near normal copronary arteries: clinical and psychosocial state 12 months after angiography. BMJ. 2003, 287: 1505-8.